“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=382

2026-yil
8-son
avgust
ISSN 3093-8546

“Yashil shahar” konsepsiyasining huquqiy asoslari: milliy qonunchilik va xorijiy tajriba qiyosiy tahlili

Ermamat Normatov,
Toshket davlat yuridik universiteti
tayanch dokdoranti
e-mail: Normatover4mamat@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada “yashil shahar” konsepsiyasining huquqiy asoslari, uning milliy qonunchilikda aks etishi hamda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ekologiya sohasidagi qonunlar, “Yashil makon” umummilliy loyihasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganilib, ularning “yashil shahar” konsepsiyasini huquqiy ta'minlashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, Yevropa ittifoqi, Germaniya, Singapur, Koreya Respublikasi va Qozog‘iston kabi davlatlarning yashil shaharsozlik sohasidagi qonunchilik tajribasi tahlil etilib, milliy huquqiy tizimga implementatsiya qilish mumkin bo‘lgan ilg‘or yondashuvlar aniqlangan. Tadqiqot natijasida milliy qonunchilikda “yashil shahar” tushunchasining qonuniy ta'rifi mavjud emasligi, sohaga oid normalarning tarqoqligi va institutsional mexanizmlarning takomillashmaganligi kabi muammolar aniqlanib, “Yashil shaharlar to‘g‘risida”gi maxsus qonun qabul qilish, shaharsozlik va ekologiya qonunchiligini o‘zaro uyg‘unlashtirish hamda yashil hududlarning minimal me'yorlarini qonun darajasida belgilash yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар. yashil shahar, shaharsozlik qonunchiligi, qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquq, “Yashil makon” umummilliy loyihasi, barqaror rivojlanish, urbanizatsiya, yashil hududlar

Аннотация. В данной статье проведен сравнительно-правовой анализ правовых основ концепции «зеленого города», ее отражения в национальном законодательстве и опыта развитых зарубежных стран. В исследовании изучены Конституция Республики Узбекистан, экологическое законодательство, общенациональный проект «Яшил макон» («Зеленый край») и другие нормативно-правовые акты, а также освещена их роль в правовом обеспечении концепции «зеленого города». Кроме того, проанализирован законодательный опыт Европейского Союза, Германии, Сингапура, Республики Корея и Казахстана в сфере зеленого градостроительства, и определены передовые подходы, которые могут быть имплементированы в национальную правовую систему. В результате исследования выявлены такие проблемы, как отсутствие законодательного определения понятия «зеленый город» в национальном законодательстве, разрозненность профильных норм и

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

несовершенство институциональных механизмов. Разработаны научно обоснованные предложения по принятию специального Закона «О зеленых городах», гармонизации градостроительного и экологического законодательства, а также законодательному закреплению минимальных нормативов зеленых зон.

Ключевые слова. зеленый город, градостроительное законодательство, право на благоприятную окружающую среду, общенациональный проект «Яшил макон», устойчивое развитие, урбанизация, зеленые зоны

Annotation. This article provides a comparative-legal analysis of the legal foundations of the“green city”concept, its reflection in national legislation, and the experience of developed foreign countries. The study examines the Constitution of the Republic of Uzbekistan, ecological legislation, the“Yashil makon”(Green Space) nationwide project, and other regulatory legal acts, highlighting their role in providing legal support for the“green city”concept. Furthermore, it analyzes the legislation and experience of the European Union, Germany, Singapore, the Republic of Korea, and Kazakhstan in green urban planning, identifying advanced approaches that can be implemented into the national legal system. As a result of the research, gaps such as the lack of a legal definition for the term“green city”in national legislation, the fragmentation of relevant regulations, and underdeveloped institutional mechanisms were identified. Consequently, scientifically grounded proposals have been developed, including the adoption of a specific Law“On Green Cities”, the harmonization of urban planning and environmental legislation, and the statutory establishment of minimum standards for green areas.

Keywords. green city, urban planning legislation, right to a favorable environment, “Yashil makon” nationwide project, sustainable development, urbanization, green areas

Kirish. Bugungi kunda dunyo aholisining yarmidan koʻpi shaharlarda istiqomat qilmoqda va mazkur koʻrsatkich 2050-yilga borib 68 foizga yetishi prognoz qilinmoqda [16]. Jadal urbanizatsiya jarayonlari, bir tomondan, iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy farovonlikning muhim omili boʻlsa, ikkinchi tomondan, atmosfera havosining ifloslanishi, yashil hududlarning qisqarishi, «issiqlik orollari» effekti, chiqindilar hajmining oshishi hamda shahar aholisi salomatligiga salbiy ta'sir kabi jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Aynan shu sharoitda “yashil shahar” konsepsiyasi urbanizatsiyalashgan hududlarda insonning qulay atrof-muhitga boʻlgan huquqini ta'minlashning samarali vositasi sifatida dunyo miqyosida keng e'tirof etilmoqda.

Oʻzbekiston uchun mazkur masala alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimizda urbanizatsiya darajasi yildan-yilga ortib bormoqda, Toshkent, Samarqand, Namangan kabi yirik shaharlarda atmosfera havosining ifloslanishi, qurilishlarning jadallashuvi hisobiga yashil maydonlarning qisqarishi kuzatilmoqda.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Oʻzbekistonning 2023-yildagi Konstitutsiyasining 49-moddasida har kim qulay atrof-muhitga, atrof-muhitning holati toʻgʻrisidagi ishonchli axborotga ega boʻlish huquqiga egaligi mustahkamlanib, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash yuzasidan chora-tadbirlar koʻrishi belgilab qoʻyildi [1]. Ushbu konstitutsiyaviy norma “yashil shahar” konsepsiyasini huquqiy jihatdan ta'minlashning fundamental asosi hisoblanadi. Ammo, ushbu normaning ishlash mexanizimi hali ishlab chiqilmaganligi sababli normaning ta'sir kuchi juda kam.

Shu bilan birga, 2021-yilda qabul qilingan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili millionlab koʻchatlar ekilishi, shaharlarda yashil hududlarni kengaytirish vazifalari belgilanganligi[4], 2025-yilda “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash toʻgʻrisida”gi qonunning qabul qilinishi [3] hamda Orxus konvensiyasiga qoʻshilish[5] mamlakatimizda yashil shaharsozlik siyosatining huquqiy poydevori shakllanayotganidan dalolat beradi. Biroq mazkur jarayonlar tizimli ilmiy tahlilni, xususan, milliy qonunchilikdagi mavjud boʻshliqlarni aniqlash va xorijiy davlatlarning ilgʻor tajribasini oʻrganishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi yana shu bilan izohlanadiki, hozirgi kunga qadar milliy huquqiy tizimda “yashil shahar” tushunchasining qonuniy ta'rifi berilmagan, sohaga oid normalar turli darajadagi normativ-huquqiy hujjatlarda tarqoq holda joylashgan, shaharsozlik va ekologiya qonunchiligi oʻrtasidagi oʻzaro muvofiqlik toʻliq ta'minlanmagan. Mazkur holat “yashil shahar” konsepsiyasini amalga oshirishda huquqni qoʻllash amaliyotida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi “yashil shahar” konsepsiyasining huquqiy asoslarini milliy qonunchilik va xorijiy tajriba qiyosiy tahlili asosida oʻrganish hamda milliy huquqiy tizimni takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun “yashil shahar” tushunchasining mazmun-mohiyati va doktrinal asoslarini ochib berish; konsepsiyaning milliy qonunchilikdagi huquqiy asoslarini tahlil qilish; xorijiy davlatlarning yashil shaharsozlik sohasidagi qonunchilik tajribasini qiyosiy oʻrganish; milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Material va metodlar

Tadqiqotning empirik va normativ bazasini Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi [2], “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash toʻgʻrisida”gi [3] qonunlar, Shaharsozlik kodeksi, “Yashil makon” umummilliy loyihasini tasdiqlash toʻgʻrisidagi Prezident farmoni [4], Orxus konvensiyasi [5] hamda Germaniya, Koreya Respublikasi, Qozogʻiston, Singapur va Yevropa ittifoqining tegishli normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etdi.

Shuningdek, tadqiqotda M.M. Brinchuk [6], S.A. Bogolyubov [7], T. Bitli [8], R. Register [9] kabi olimlarning ilmiy asarlari hamda BMTning Aholi punktlari dasturi (UN-Habitat) ma'ruzalari [16] manba sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida ijtimoiy-gumanitar va yuridik fanlarda keng qo‘llaniladigan quyidagi metodlardan foydalanildi: qiyosiy-huquqiy metod - milliy va xorijiy qonunchilik normalarini taqqoslash hamda ilg‘or tajribani aniqlashda; formal-yuridik (dogmatik) metod - normativ-huquqiy hujjatlar matnini sharhlash va ulardagi tushunchalarni tahlil qilishda; tizimli-strukturaviy metod – “yashil shahar” konsepsiyasiga oid normalarning huquq tizimidagi o‘rnini aniqlashda; tarixiy-huquqiy metod – sohaga oid qonunchilikning rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda; analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi umummantiqiy metodlar – nazariy xulosalar va amaliy takliflarni shakllantirishda qo‘llandi. Mazkur metodlarning majmuaviy qo‘llanilishi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asosliligini ta'minlashga xizmat qildi.

Asosiy qism

“Yashil shahar” tushunchasi va uning doktrinal asoslari. “Yashil shahar” (inglizcha – green city, eco-city) konsepsiyasi XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan bo‘lib, uning ildizlari E. Hovard ilgari surgan “bog‘-shahar” g‘oyasiga borib taqaladi. Zamonaviy ma'nodagi “eko-shahar” atamasini ilk bor amerikalik olim R. Register 1987-yilda ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lib, u eko-shaharni tabiat bilan muvozanatda yashaydigan, aholining sog‘lom hayotini ta'minlaydigan shahar sifatida ta'riflagan [9:13]. T. Bitli esa Yevropa shaharlari tajribasi asosida “yashil urbanizm” nazariyasini rivojlantirib, yashil shaharning asosiy belgilari sifatida ixcham hududiy rejalashtirish, jamoat transportining ustuvorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va shahar ichidagi yashil infratuzilmaning rivojlanganligini ko‘rsatgan [8:6-8].

Huquqiy nuqtayi nazardan “yashil shahar” konsepsiyasi insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini urbanizatsiyalashgan hududlarda amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy shakli sifatida qaralishi lozim. M.M. Brinchuk ta'kidlaganidek, qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquq nafaqat toza tabiiy muhitni, balki insonning yashash sharoitlari sifatini, shu jumladan, aholi punktlaridagi ekologik vaziyatni ham qamrab oladi [6:170]. S.A. Bogolyubovning fikricha, shaharlardagi ekologik munosabatlarni tartibga solishda ekologiya huquqi va shaharsozlik huquqi normalarining o‘zaro uyg‘unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega [7:215]. Demak, “yashil shahar” konsepsiyasi o‘z tabiatiga ko‘ra kompleks huquqiy institut bo‘lib, u ekologiya huquqi, shaharsozlik huquqi, yer huquqi, ma'muriy huquq va boshqa sohalar normalarini birlashtiradi. Agar “yashil shahar” konsepsiyasini amalga oshirmoqchi bo‘lsak, huquq tarmoqlarining o‘zaro kesishgan joyini aniqlashimiz va muvozanatda saqlashimiz kerak hisoblanadi.

Milliy qonunchilikda “yashil shahar” konsepsiyasining huquqiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasida “yashil shahar” konsepsiyasining

huquqiy asoslari bir necha darajadagi normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan. Birinchi - konstitutsiyaviy daraja belgilab qoyilganligi hisoblanadi. Konstitutsiyaning 49-moddasi har kimning qulay atrof-muhitga boʻlgan huquqini kafolatlash bilan birga, davlat zimmasiga shaharsozlik faoliyatining ekologik talablarga muvofiqligini ta'minlash majburiyatini yuklaydi [1]. Mazkur norma 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohot natijasida sezilarli darajada kengaytirilib, unda barqaror rivojlanish prinsipi ilk bor konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Bu esa “yashil shahar” konsepsiyasini rivojlantirish uchun yuksak yuridik kuchga ega asos yaratdi. Ushbu normaning kiritilishi fuqarolarning ekologik normalari qanchalar muhim yekanligini yana bir bor koʻrsatib bergan.

Ikkinchi qonun bu “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi qonun hisoblanib, unda atrof-muhitni muhofaza qilishning umumiy prinsiplari, ekologik talablar va davlat boshqaruvi mexanizmlarini belgilangan[2]. Shaharsozlik kodeksi shaharsozlik faoliyatida ekologik xavfsizlik talablariga rioya etilishini, aholi punktlarini rejalashtirishda yashil hududlarni tashkil etishni nazarda tutadi. Alohida ta'kidlash joizki, 2025-yil fevralda yangi tahrirda qabul qilingan “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash toʻgʻrisida”gi qonun shaharsozlik hujjatlari, shu jumladan, bosh rejalar va qurilish loyihalarining majburiy davlat ekologik ekspertizasidan oʻtkazilishini belgilab, yashil shahar talablarining loyihalashtirish bosqichidayoq hisobga olinishiga huquqiy kafolat yaratdi [3].

Uchinchi - qonunosti hujjatlari bu “Yashil makon” umummilliy loyihasi boʻlib, bu loyiha yashil shahar qurishda juda muhim oʻrin tutadi. Mazkur loyiha doirasida respublikada har yili 200 million tup koʻchat ekish, shaharlarda yashil maydonlar ulushini oshirish, “yashil belbogʻlar” tashkil etish vazifalari belgilangan[4]. Loyihaning ahamiyati shundaki, u yashil hududlarni kengaytirishni davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi darajasiga koʻtardi va mahalliy davlat hokimiyati organlari zimmasiga aniq majburiyatlar yukladi. Bundan tashqari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarida, shaharlarning bosh rejalarida yashil infratuzilmaga oid koʻrsatkichlar aks ettirilmoqda.

Toʻrtinchi – xalqaro-huquqiy konvensiya va normalarning mahallaiy qanunlarga kirib kelishi va qabul qilinishi hisogblanadi. Oʻzbekistonning 2025-yilda Orxus konvensiyasini ratifikatsiya qilishi muhim qadam boʻldi. Mazkur konvensiya jamoatchilikning atrof-muhitga oid axborotdan foydalanish, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish va odil sudlovga murojaat qilish huquqlarini kafolatlaydi [5]. Yashil shahar konsepsiyasi nuqtayi nazaridan bu shahar aholisining obodonlashtirish va qurilish loyihalari yuzasidan qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyatini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi, daraxtlarni noqonuniy kesish yoki yashil hududlarni qisqartirish holatlarida sudga murojaat qilish mexanizmini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, o‘tkazilgan tahlil milliy qonunchilikda quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Birinchidan, qonunchilikda “yashil shahar”, “yashil infratuzilma”, “yashil hudud” tushunchalarining qonuniy ta'rifi berilmagan, bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida turlicha talqinlarga sabab bo‘lmoqda. Ikkinchidan, sohaga oid normalar Konstitutsiya, qonunlar, Prezident hujjatlari va idoraviy hujjatlarda tarqoq joylashgan bo‘lib, ularni tizimlashtiruvchi yagona hujjat mavjud emas. Uchinchidan, shaharlarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yashil maydonlarning minimal me'yori qonun darajasida belgilanmagan, mavjud shaharsozlik normalari esa ko‘p hollarda tavsiyaviy xususiyatga ega. To‘rtinchidan, yashil hududlarni muhofaza qilish sohasida yuridik javobgarlik mexanizmlari, xususan, daraxtlarni noqonuniy kesganlik uchun javobgarlik amaliyotda yetarlicha samarali qo‘llanilmayapti.

Xorijiy tajriba tahlili. Rivojlangan davlatlarning yashil shaharsozlik sohasidagi tajribasini o‘rganish milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun qimmatli material beradi.

Yevropa ittifoqida yashil shahar siyosati “Yevropa yashil bitimi” (European Green Deal) doirasida amalga oshirilmoqda. Mazkur hujjat 2050-yilga borib iqlimga nisbatan neytral iqtisodiyotga erishishni maqsad qilib, shaharlarda binolarning energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza transportni rivojlantirish va bioxilma-xillikni tiklash bo‘yicha majburiy ko‘rsatkichlarni belgilaydi[15]. Yevropa ittifoqida “Yevropaning yashil poytaxti” (European Green Capital) mukofoti instituti shaharlar o‘rtasida ekologik raqobatni rag‘batlantiruvchi samarali huquqiy-tashkiliy mexanizm sifatida e'tiborga molik. Har yili ekologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha eng yaxshi natijaga erishgan shaharga mazkur maqom berilishi shahar hokimliklarini yashil siyosatni faol amalga oshirishga undaydi.

Germaniyada yashil shaharsozlikning huquqiy asoslari Qurilish kodeksi (Baugesetzbuch) va Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi federal qonunda (BNatSchG) mustahkamlangan. Xususan, mazkur federal qonunning normalariga ko‘ra, har qanday qurilish natijasida tabiatga yetkazilgan zarar kompensatsiya qilinishi, ya'ni buzilgan yashil hudud o‘rniga teng qiymatli yangi yashil hudud tashkil etilishi shart (kompensatsiya prinsipi) [11]. Bundan tashqari, Germaniya shaharlarida har bir daraxt kadastrga kiritilib, muayyan diametrdan yirik daraxtni kesish uchun maxsus ruxsatnoma talab etiladi, ruxsatsiz kesish esa katta miqdordagi jarimalarga sabab bo‘ladi. Ushbu tajriba yashil hududlarni huquqiy muhofaza qilishning aniq va samarali mexanizmiga misol bo‘la oladi. Hozirgi vaqtga kelib, bizda millionlab xaraxtlar yekilmoqda. Ammo, daraxtlarning kadastri bizda yuritilmayotganligi va keyinchalik monitoring amalga oshirilmayotganligi sababli ko‘plab daraxtlar qurib qolmoqda.

Singapur “bog‘dagi ichidagi shahar”dan “tabiatdagi shahar”ga aylanish strategiyasini izchil amalga oshirayotgan davlat

hisoblanadi. “Singapur yashil rejasi – 2030” dasturi har bir uy-joydan 10 daqiqalik masofada bog‘ joylashishini, bir million tup daraxt ekilishini va yashil binolar ulushini 80 foizga yetkazishni nazarda tutadi [14]. Singapur tajribasining huquqiy jihatdan ahamiyatli tomoni shundaki, qurilish loyihalariga nisbatan “landshaftni almashtirish” (landscape replacement) talabi joriy etilgan: bino qurilishi natijasida yo‘qotilgan yashil maydon bino vertikal va tom qismidagi ko‘kalamzorlashtirish hisobiga to‘liq qoplanishi shart. Mazkur talab zich qurilgan shahar sharoitida yashil maydonlarni saqlashning innovatsion huquqiy vositasi hisoblanadi. Singapurning ushbu amaliyoti har bir davlat uchun juda muhim. Chunki, shaharlarning kengayishi va ulkan qurilishlar shaharlardagi yashil maydonlarni qisqarishiga olib keladi va yo‘qotilgan yashil maydonlar hech qanday kengytirish bilan qoplashning imkoni yshq.

Koreya Respublikasida 2010-yilda qabul qilingan “Kam uglerodli yashil o‘sish to‘g‘risida”gi asosiy qonun yashil iqtisodiyot va yashil shaharsozlikning yaxlit huquqiy asosini yaratdi [12]. Mazkur qonun asosida milliy va mahalliy darajada yashil o‘sish qo‘mitalari tashkil etilib, shaharlarni rivojlantirish rejalari majburiy tartibda iqlim ko‘rsatkichlari bilan bog‘landi. Koreyaning Songdo shahri “aqlli yashil shahar” loyihasining huquqiy-tashkiliy jihatdan muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga misoldir. Ushbu tajriba “yashil shahar” konsepsiyasini alohida qonun orqali tartibga solish modeli samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Xitoy Xalq Respublikasida “gubka-shahar” (sponge city) dasturi davlat darajasida huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra shaharlarda yog‘in suvlarining kamida 70 foizi tabiiy usulda - yashil tomlar, suv o‘tkazuvchan qoplamalar va shahar ichidagi suv havzalari orqali ushlab qolinishi va qayta ishlatilishi talab etiladi [10:112]. Mazkur dastur shaharsozlik me'yorlariga majburiy texnik talablar sifatida kiritilganligi bilan ahamiyatlidir. Iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslari taqchilligi kuchayib borayotgan O‘zbekiston uchun ushbu yondashuv, ayniqsa, shaharlarni obodonlashtirishda sug‘orish tizimlarini huquqiy tartibga solish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi bizning shaharlarda sug‘orish tizimlari to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi va suvni saqlash omborlari mavjud emasligi suvni to‘g‘ridan to‘g‘ri daryolarga va kanallarga oqizib yuborishga olib keladi.

Qozog‘iston tajribasi O‘zbekiston uchun huquqiy tizimlarning yaqinligi nuqtayi nazaridan alohida qiziqish uyg‘otadi. 2021-yilda qabul qilingan Qozog‘iston Ekologiya kodeksi atrof-muhitga oid normalarni yagona kodifikatsiyalashgan hujjatda birlashtirib, “eng yaxshi mavjud texnologiyalar” prinsipini, strategik ekologik baholash institutini va jamoatchilik ekologik nazoratining keng mexanizmlarini joriy etdi [13]. Strategik ekologik baholash instituti alohida ahamiyatga ega: u shaharlarning bosh rejalari va rivojlantirish dasturlari qabul qilinishidan oldin ularning atrof-muhitga ta'sirini kompleks baholashni nazarda tutadi. Mazkur

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

institutni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yashil shahar siyosatining strategik rejalashtirish bosqichida hisobga olinishini ta'minlagan bo‘lar edi.

Qiyosiy tahlil natijalari. O‘rganilgan xorijiy tajribani umumlashtirish quyidagi xulosalarga olib keladi. Birinchidan, aksariyat rivojlangan davlatlarda yashil shaharsozlik maxsus qonun yoki kodifikatsiyalashgan hujjat orqali tartibga solinadi, milliy qonunchilikda esa bunday yaxlit hujjat mavjud emas. Ikkinchidan, xorijiy davlatlarda yashil hududlarga nisbatan aniq miqdoriy me'yorlar (aholi jon boshiga yashil maydon, uy-joydan bog‘gacha bo‘lgan masofa) va kompensatsiya mexanizmlari huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Uchinchidan, rivojlangan davlatlarda yashil hududlarni muhofaza qilishda yuridik javobgarlik choralari qat'iy belgilangan va izchil qo‘llaniladi. To‘rtinchidan, jamoatchilik ishtiroki va ekologik axborotning ochiqligi yashil shahar siyosatining ajralmas elementi sifatida kafolatlangan. Beshinchidan, rag‘batlantiruvchi mexanizmlar - yashil sertifikatlashtirish, soliq imtiyozlari, mukofot institutlari – majburlovchi normalar bilan uyg‘un holda qo‘llaniladi [8:302; 10:45].

Mazkur qiyosiy tahlil O‘zbekistonda “yashil shahar” konsepsiyasining huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha aniq yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi. Milliy qonunchilikning afzalligi sifatida konstitutsiyaviy darajadagi mustahkam asos, “Yashil makon” loyihasining keng ko‘lami va ekologik ekspertiza institutining yangilanganligini ko‘rsatish mumkin. Ayni paytda qonuniy ta'riflarning yo‘qligi, normalarning tarqoqligi, miqdoriy me'yorlar va kompensatsiya mexanizmlarining yetishmasligi bartaraf etilishi lozim bo‘lgan asosiy bo‘shliqlar hisoblanadi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, “yashil shahar” konsepsiyasi huquqiy jihatdan insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini urbanizatsiyalashgan hududlarda amalga oshirishning kompleks tashkiliy-huquqiy shakli bo‘lib, u ekologiya, shaharsozlik, yer va ma'muriy huquq normalarini o‘zida birlashtiradi. Konstitutsiyaning 49-moddasi va barqaror rivojlanish prinsipining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi mazkur konsepsiyani rivojlantirishning fundamental huquqiy asosini tashkil etadi.

Ikkinchidan, milliy qonunchilikda “yashil shahar” konsepsiyasiga oid normalar mavjud bo‘lsa-da, ular tarqoq xususiyatga ega bo‘lib, yagona tizimga keltirilmagan. Shu munosabat bilan “Yashil shaharlar to‘g‘risida”gi maxsus qonunni ishlab chiqish va qabul qilish taklif etiladi. Mazkur qonunda “yashil shahar”, “yashil infratuzilma”, “yashil hudud” tushunchalarining qonuniy ta'riflari, yashil shaharsozlikning prinsiplari, davlat organlari va mahalliy hokimliklarning vakolatlari, jamoatchilik ishtiroki mexanizmlari belgilanishi lozim.

Uchinchidan, Germaniya va Singapur tajribasidan kelib chiqib, qurilish faoliyatida yashil hududlarni kompensatsiya qilish prinsipini joriy etish maqsadga muvofiq: har qanday qurilish natijasida yoʻqotilgan yashil maydon teng yoki undan ortiq hajmdagi yangi koʻkalamzorlashtirish hisobiga qoplanishi majburiy huquqiy talab sifatida belgilanishi kerak. Shuningdek, shaharlarda aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan yashil maydonlarning minimal meʼyorini qonun darajasida mustahkamlash zarur.

Toʻrtinchidan, Qozogʻiston tajribasi asosida strategik ekologik baholash institutini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, yaʼni shaharlarning bosh rejalari va hududlarni rivojlantirish dasturlarining atrof-muhitga taʼsirini ular qabul qilinishidan oldin baholash mexanizmini joriy etish taklif qilinadi.

Beshinchidan, Orxus konvensiyasi talablaridan kelib chiqib, shaharsozlik qarorlarini qabul qilishda jamoatchilik ishtirokining amaliy mexanizmlarini kuchaytirish, yashil hududlarga oid axborotning ochiq elektron reestrlarini yuritish hamda daraxtlarni noqonuniy kesganlik uchun yuridik javobgarlikni kuchaytirish lozim.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi Oʻzbekistonda “yashil shahar” konsepsiyasining yaxlit huquqiy bazasini shakllantirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi maqsadlariga erishish hamda shahar aholisining qulay atrof-muhitga boʻlgan konstitutsiyaviy huquqini real taʼminlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (янги таҳрир). 2023 йил 1 майда кучга кирган. - Тошкент: Ўзбекистон, 2023. -96 б. (Constitution of the Republic of Uzbekistan (new edition). Entered into force on May 1, 2023. - Tashkent: Uzbekistan, 2023. - 96 p.)

2. Ўзбекистон Республикасининг “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги қонуни. 1992 йил 9 декабрь, № 754-XII // Ўзбекистон Республикаси Олий кенгашининг ахборотномаси. - 1993. - № 1. (Law of the Republic of Uzbekistan “On Nature Protection”. December 9, 1992, No. 754-XII // Bulletin of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan. - 1993. - No. 1.)

3. Ўзбекистон Республикасининг “Экологик экспертиза, атроф-муҳитга таъсирни баҳолаш ва стратегик экологик баҳолаш тўғрисида”ги қонуни (янги таҳрир). 2025 йил февраль // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. (Law of the Republic of Uzbekistan “On Ecological Expertise” (new edition). February 2025 // National Database of Legislation.)

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 декабрдаги “2022–2026 йилларда “Яшил макон” умуммиллий лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 57-қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. (Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-57 of December 30, 2021 “On measures to implement the nationwide project “Yashil Makon” in 2022–2026” // National

Database of Legislation.)

5. Атроф-муҳитга оид ахборотдан фойдаланиш, қарорлар қабул қилиш жараёнида жамоатчиликнинг иштироки ва одил судловга мурожаат қилиш имкониятидан фойдаланиш тўғрисидаги конвенция (Орхус конвенцияси). 1998 йил 25 июнь. (Convention on Access to Information, Public Participation in Decision-Making and Access to Justice in Environmental Matters (Aarhus Convention). June 25, 1998.)

6. Бринчук М.М. Экологическое право: учебник. - М.: Юристъ, 2004. - 670 с. (Brinchuk M.M. Environmental Law: textbook. - Moscow: Yurist, 2004. - 670 p.)

7. Боголюбов С.А. Экологическое право: учебник для вузов. - М.: Юрайт, 2011. - 482 с. (Bogolyubov S.A. Environmental Law: textbook for universities. - Moscow: Yurayt, 2011. - 482 p.)

8. Beatley T. Green Urbanism: Learning from European Cities. - Washington, D.C.: Island Press, 2000. - 512 p.

9. Register R. Ecocity Berkeley: Building Cities for a Healthy Future. - Berkeley: North Atlantic Books, 1987. — 140 p.

10. Wong T.-C., Yuen B. (eds.) Eco-city Planning: Policies, Practice and Design. - Dordrecht: Springer, 2011. — 300 p.

11. Германия Федератив Республикасининг “Табиатни муҳофаза қилиш ва ландшафтларни асраш тўғрисида”ги федерал қонуни (Bundesnaturschutzgesetz - BNatSchG). 2009 йил 29 июль. (Federal Act on Nature Conservation and Landscape Management of the Federal Republic of Germany (BNatSchG). July 29, 2009.)

12. Корея Республикасининг “Кам углеродли яшил ўсиш тўғрисида”ги асосий қонуни. 2010 йил 13 январь, № 9931. (Framework Act on Low Carbon, Green Growth of the Republic of Korea. January 13, 2010, No. 9931.)

13. Қозоғистон Республикасининг Экология кодекси. 2021 йил 2 январь, № 400-VI ҚРЗ. (Environmental Code of the Republic of Kazakhstan. January 2, 2021, No. 400-VI.)

14. Singapore Green Plan 2030 // https://www.greenplan.gov.sg

15. The European Green Deal. Communication from the Commission, COM(2019) 640 final // https://eur-lex.europa.eu

16. UN-Habitat. World Cities Report 2022: Envisaging the Future of Cities. – Nairobi: United Nations Human Settlements Programme, 2022. - 422 p.